NAMANGAN VILOYATI POP TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 6-yanvar | 11-6-84-Q/25 | Pop tuman hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrdagi 618-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21[1]-moddalariga asosan, Namangan viloyati hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollar oliy ta’lim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 585-son qarori ijrosi haqida” 2021-yil 24-sentabrdagi 274-6-0-Q/21-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi 2024-yil 26-dekabrdagi 618-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosi ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrdagi 618-6-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Namangan viloyati hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollar oliy ta’lim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash choratadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 585-son qarori ijrosi haqida” 2021-yil 24-sentabrdagi 274-6-0-Q/21-son qarorining:

a) 3-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanishi;

b) 4-bandidagi “Viloyat hokimining xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi I.Qo‘chqarova” so‘zlari “Viloyat hokimining o‘rinbosari – oila va xotin qizlar boshqarmasi boshlig‘i D.Yakubova” so‘zlari bilan almashtirilganligi;

d) 5-bandidagi “viloyat hokimining o‘rinbosari - mahalla va oilani qo‘llabquvvatlash boshqarmasi boshlig‘i Sh.Musayev” so‘zlari “viloyat hokimining o‘rinbosari – oila va xotin qizlar boshqarmasi boshlig‘i D.Yakubova” so‘zlari bilan almashtirilligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talaba xotin-qizlarning oliy ta’lim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-

quvvatlash yuzasidan tavsiyanoma berish bo‘yicha tuman komissiyasining yangilangan tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tumanhokimining o‘rinbosari – oila va xotin qizlar bo‘limi boshlig‘i G.Ergasheva zimmasiga yuklansin.

1-ilova

Ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talaba xotin-qizlarning oliy ta’lim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yuzasidan tavsiyanoma berish bo‘yicha tuman komissiyasining

TARKIBI

1. **A.Sultanov**	- Tuman hokimi, *Komissiya raisi*
2**. O‘.Y o‘ldashev**	- Tuman hokimining o‘rinbosari
3. **G.Ergasheva**	- Tuman hokimining o‘rinbosari – Oila va xotin qizlar bo‘limi boshlig‘i
4. **Lavozimiga ko‘ra**	- professional ta′lim muassasalari direktorlari
5. **M.Sattorov**	- O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i
6. **Lavozimiga ko‘ra**	- Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
7. **Lavozimiga ko‘ra**	- Xalq deputatlari tuman Kengashi deputati
8. **A.Davlatov**	- Tuman hokimligining yuriskonsulti
9. **Lavozimiga ko‘ra**	- Tuman oila va xotin-qizlar bo‘limi mas’ul xodimi, *Komissiya kotibi*

Izoh.*Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalar yuklangan shaxslar kiritiladi.*

Tuman hokimi **A.Sultanov**